


## Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida Toshkent shahrida 11,6 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 mingtaga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 7,6 mingta (11,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 68,8 mingtani tashkil etgan.


### Korxona va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, hayotga tadbiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,2 % savdoda, 19,5 % sanoatda, 7,8 % qurilishda, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,3 % tashish va saqlash, 3,9 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi xizmatlar ko'rsatish va 33,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda



**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
<b>Toshken shaxri</b>	<b>70655</b>	<b>68895</b>	<b>100</b>	<b>100</b>


*tumanlar :*

Uchtepa	5909	5665	8.4	8.2
Bektemir	1445	1421	2.0	2.1
Yunusobod	9699	9431	13.7	13.7
Mirzo Ulug'bek	8210	8120	11.6	11.8
Mirobod	6132	5986	8.7	8.7
Shayxontoxur	7029	6814	9.9	9.9
Olmazor	7194	7120	10.2	10.3
Sergeli	4159	4085	5.9	5.9
Yakkasaroy	6466	6393	9.2	9.3
Yashnobod	5319	5094	7.5	7.4
Chilanzor	9093	8766	12.9	12.7

2018 yil yanvar-noyabr holatiga 11655 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 18.4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod tumanida (1616 ta), Chilanzor tumanida (1427 ta), Mirzo Ulug'bek tumanida (1391 ta) va Shayxontoxur tumanida (1174 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir tumanida (238 ta), Sergeli tumanida (718 ta) hamda Yashnobod tumanida (891 ta) tashkil etilgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'ssak eng ko'pi savdoda (3083 ta), sanoatda (2095 ta) va qurilish (1333 ta) sohalarida tashkil etilgan.

Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (162 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (189 ta) axborot va aloqada (602 ta) hamda tashish va saqlashda (505 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil yanvar- noyabr holatiga			2017 yil yanvar- noyabr holatiga			2018 yil yanvar- noyabr holatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiyl soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	91	105,8	1,3	222	244,0	2,3	189	85,1	1,6
Sanoat	1531	103,3	21,5	2433	158,9	25,6	2095	86,1	18,0
Qurilish	594	116,5	8,4	946	159,3	9,9	1333	140,9	11,4
Savdo	1441	105,9	20,3	1737	120,5	18,3	3083	177,5	26,5
Tashish va saqlash	278	79,0	3,9	394	141,7	4,1	505	128,2	4,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	738	105,7	10,4	890	120,6	9,4	968	108,8	8,3
Axborot va aloqa	233	132,4	3,3	413	177,3	4,3	602	145,8	5,2
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	124	124,0	1,7	136	109,7	1,4	162	119,1	1,4
Boshqa turlari	2080	117,3	29,3	2338	112,4	24,6	2718	116,3	23,3


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
**(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni**  
**(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**

2018 yil 1 dekabr holatiga 60,3 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9,5 mingta, oilaviy korxonalar – 2,2 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 47,2 mingta, va boshqalar 1,4 mingtani tashkil etadi.


**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4643 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1029 taga yoki 22.1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 2172 tasi qo'shma korxonalar, 2471 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda**



## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Mirobod tumanida 766 ta (16,4%), Yakkasaroy tumanida 740 ta (15,9 %) va Yunusobod tumanida 630 ta (13,5%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor tumanida 252 ta (5,4 %), Sergeli tumanida 192 ta (4,1 %), Uchtepa tumanida 129 ta (2.7 %) va Bektemir tumanida 105 ta (2,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1290 ta (27.8 %), savdoda 1246 ta (26.8 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1047 ta (22.5 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 64 ta (1,4 %), axborot va aloqada 184 ta (4.0 %), tashish va saqlashda 154 ta (3,3 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 49 ta (1,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 232 ta (5,0 %) va qurilishda 377 ta (8,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital

ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.


### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 1292 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 799 tani tashkil etib 2,6 martaga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 253 ta, Turkiya Respublikasi – 222 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 137 ta, Qozog'iston Respublikasi – 164 ta, va Koreya Respublikasi – 79 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 258 ta, savdoda 447 ta, qurilishda 156 ta, axborot va aloqada 73 ta va boshqa faoliyat turlarida 358 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiyl soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiyl soniga nisbatan %
<b>Qishloq va o'rmon xo'jaligi</b>	10	500.0	2.0	16	160.0	1.2
<b>Sanoat</b>	181	153.4	36.7	258	142.5	20,0
<b>Qurilish</b>	55	177.4	11,2	156	283.6	12.1
<b>Savdo</b>	89	132.8	18.1	447	502.2	34.6
<b>Tashish va saqlash</b>	13	433.3	2.6	40	307.7	3.1
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	20	111.1	4.1	68	340.0	5.3
<b>Axborot va aloqa</b>	23	328.6	4.7	73	317.4	5.7
<b>Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	9	300.0	1.8	13	144.4	1.0
<b>Boshqa turlari</b>	93	134.8	18.9	221	237.6	17.1

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar


### Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 59,6 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga qaraganda 10,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi Yunusobod tumani 8136 ta (13,6 %), Chilonzor tumani 7547 ta (12,6 %), Mirzo Ulug'bek tumani 6917 ta (11,6 %) va Olmazor tumani 6403 ta (10,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 59,6 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 13,7 mingtasi (23,1 %) – savdoda, 13,3 mingtasi (22,3 %) - sanoatda, 5,3 mingtasi (8,9 %) - qurilishda, 0,7 mingtasi (1,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,0 mingtasi (8,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,9 mingtasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 2,6 mingtasi (4,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 1,1 mingtasi (1,9 %) - sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 14,8 mingtasi (24,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### **Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 11,0 mingdan oshiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 18,9 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Yunusobod tumanida (1518 ta), Chilonzor tumanida (1349 ta), Mirzo Ulug'bek tumanida (1316 ta) va Shayxontoxur tumanida (1124 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir tumanida (230 ta), Sergeli tumanida (681 ta) hamda Yashnobod tumanida (862 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (3083 ta), sanoatda (2093 ta), qurilishda (1329 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (157 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (185 ta) hamda tashish va saqlash (505 ta) sohalarida tashkil etilgan.


### **Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 dekabr holatiga 2268 tasi tashkil etib, ulardan 2215 tasi yoki 97,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko`satkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`satayotganlarning umumiy soni o`rtacha 14,8 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`satayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 43,9 % yoki 972 tasi sanoat, 17,0 %

yoki 377 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,1 % yoki 357 tasi savdo, 2,6 % yoki 58 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 39 tasi qurilish, 0,9 % yoki 19 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 21 tasi sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % yoki 36 tasi axborot va aloqa hamda 15,2 % yoki 336 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat va yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlashda.